

BIZ TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKKA QARSHIMIZ

Shayxiyev Erkinbay Iskakovich

Qoraqalpaqston Respublikasi Shumanay tumani 33-sonli ayrim fanlar chuqur oqitiladigan sinflari bor umumtalim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda Zo‘ravonlikka qarshimiz mavzusu keng va chuqur o‘rganganilgan holda samarali tatbiq etishning ahamiyati, shuningdek amalga oshirilayotgan ishlar yoritilgan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning: “Oilalarda nosog‘lom munosabatlar, qaynona-kelin, er-xotin o‘rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o‘z joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni qattiq iztirobga solmoqda“ degan fikrlari mavzuning qanchalik dolzarb ekanligini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Ichki ishlar organlari xodimlari tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishda birinchi bo‘g‘inlardan biri bo‘lib, xodimlarning malakasi va zo‘ravonlik sodir etilgan hollarda amalga oshirilgan dastlabki harakatlari katta ahamiyatga egadir.

Jahonning ko‘pgina mamlakatlarida xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari alohida toifaga kiritiladi. Chunki bunday holatlarning oldini olish ham, ularning oqibatlarini bartaraf etish ham o‘ziga xos farqli jihatlarga ega. Ekspertlarning fikricha, uy sharoitidagi zo‘ravonlik va xarassment (tegajog‘lik) – bu noxush vaziyatlarning shunday bir turiki, ularga ayollar erkaklarga nisbatan ko‘proq duch keladilar. Boisi oddiy – ular aynan ayol bo‘lganliklari uchun ko‘p hollarda zo‘ravonlik qurbonlariga aylanadilar

Zo‘ravonlik — bu jarohatlash, suiste‘mol qilish, zarar yetkazish yoki yo‘q qilish uchun jismoniy kuch ishlatishdir . Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan zo‘ravonlikka ta‘rif quyidagicha berilgan: “O‘linga, psixologik zararga, noto‘g‘ri rivojlanishga yoki mahrumlikka sabab bo‘luvchi o‘ziga, boshqa shaxsga, guruhga yoki jamiyatga qarshi har qanday kuchni qasddan qo‘llash, tahdid qilish yoki jarohat yetkazish zo‘ravonlikdir” Zo‘ravonlikning oldini olishda ko‘p shakllar mavjud. Mamlakatdagi zo‘ravonlik darajasi va o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan omillar o‘rtasida kuchli bog‘liqlik bor. Masalan, konsentrlangan (mintaqaviy) qashshoqlik, daromadlar va gender tengsizliklari , spirtli ichimliklarni iste‘mol qilish, bolalar va ota-onalar o‘rtasida xavfsiz, barqaror hamda tarbiyaviy munosabatlarning yo‘qligi. Garchi ruhiy va jismoniy salomatlik hamda individual reaksiyalar, shaxsiyatlar va boshqalar bu xatti-harakatlarning shakllanishida doimo hal qiluvchi omillar bo‘lib kelgan bo‘lsada, zo‘ravonlikning asosiy sabablarini hal qiluvchi strategiyalar uning oldini olishda nisbatan samarali bo‘lishi mumkin. Har qanday hodisani muhokama qilish va tahlil

qilish uning mohiyati va asosiy turlarining dastlabki ta'rifini nazarda tutadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ta'rifiga ko'ra,

Zo'ravonlik - bu o'z mavqei va imkoniyatlarini suiiste'mol qilgan holda qasddan o'ziga va boshqa shaxsga yoki bir guruh shaxslarga qaratilgan, jismoniy kuch ishlatish, shuningdek, ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan tahdid shakli. Jismoniy kuch ishlatish orqali o'lim va nogironlikka olib keladigan tanaga shikast etkazish hisoblanadi.

Shunga ko'ra, ta'lim muassasasidagi zo'ravonlik, o'z hududida yoki o'z xonasida, yoki mashg'ulotlar paytida, tanaffuslarda, ta'lim muassasasiga borishda va qaytishda, shunga o'xshash boshqa joylarda jumladan, ta'lim muassasasi tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarda maxsus rejalashtirilgan, yoki o'z-o'zidan paydo bo'ladigan tajovuzkor harakatlar deb ta'riflanishi mumkin. Maktabdagi zo'ravonlik muammolarini o'rganish va yoritishning xalqaro tajribasida zo'ravonlik turlarining ta'sir xususiyati va namoyon bo'lish chastotasini tasniflash odatiy holdir.

Ta'sir xususiyatiga ko'ra **zo'ravonlik harakatlarini:**

* jismoniy;

* psixologik;

* iqtisodiy;

* Jinsiy

* virtual zo'ravonlik yoki kiberhujum ko'rinishlarida paydo bo'lishini ajratishimiz mumkin.

Jismoniy – bu jismoniy salomatlikka zarar etkazishga qaratilgan harakatlar. Tan jarohati etkazish, kaltaklash, urish.

Psixologik – bu psixologik salomatlikka zarar etkazish. Xo'rlash, tahdidlar, aldash, shantaj, nazorat.

Iqtisodiy – bu ishlash, o'qish, o'zingiz uchun zarur narsalarni sotib olish, xarajatlar va daromadlarni nazorat qilishni taqiqlash shaklida namoyon bo'ladi.

Jinsiy zo'ravonlik - bu insonni o'z xohishi va irodasidan tashqari jinsiy aloqada bo'lishga majbur qilish deb ta'riflanadi. Shuningdek, voyaga yetmagan yoki rozilik yoshiga yetmagan shaxsga nisbatan kattalar tomonidan o'tkazilgan har qanday (shu jumladan, majburlash bilan bog'liq bo'lgan) jinsiy xarakterdagi harakatlar^[1] hisoblanadi.

Kiberbulling (kiberhujum) - bu Internet texnologiyalaridan foydalangan holda ta'qid qilishning bir shakli. Uning namoyon bo'lish shakllari har xil – haqorat, shantaj, tahdidlar, tuhmat, ta'qid va hokazolar.

Aksariyat hollarda zo'ravonlikning turli xil ko'rinishlari (jismoniy, psixologik, iqtisodiy va virtual) jinslar tengsizligi va kuchlarning nomutanosibligi tufayli gender asosida yuzaga keladi. Jinsiy zo'ravonlikni qizlar va ayollar tez-tez uchratishadi. Erkaklarning ustunligi, mavqeini kuchaytiradigan va shafqatsizlikni rivojlantiradigan

ijtimoiy normalar o'g'il bolalarda tajovuzkor xatti-harakatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Qizlarning itoatkor va bo'ysunuvchan bo'lishini bilgan o'g'il bolalar ularga nisbatan bosim, majburlash va kuch ishlatishi mumkin. Erkakliklarini namoyish qilish maqsadida ular o'zidan kuchsizni xo'rlashi, kamsitishi va jismoniy, hatto jinsiy zo'rashlari mumkin.

Ta'lim muassasasida o'quvchilar, shuningdek, millati, jinsi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, dini, nogironligi, rivojlanish yoki xulq-atvori xususiyatlari, kasalligi yoki boshqa xususiyatlariga qarab shaxsga nisbatan xurofot yoki kamsituvchi munosabatni o'z ichiga olgan holatga duch kelishi mumkin. Diskriminatsiya turli yo'llar bilan namoyon bo'lishi mumkin: haqoratli va kamsituvchi bayonotlar, izohlar, hazillar, laqablar va ism-shariflar, o'yinlar va mashg'ulotlardan chetlatish, shuningdek, noaniq, tengsiz munosabat orqali aniq va ochiq ifoda etiladi. Zo'ravonlik harakatlari, namoyon bo'lish turlari va shakllaridan qat'i nazar, bitta yoki muntazam ravishda bir kishiga qarshi takrorlanishi mumkin. **“Bulling”** yoki **“Travlya”** ya'ni **“Bezorilik”**, atamasi zo'ravonlikni muntazam ravishda ifodalash uchun ishlatiladi va jabrlanuvchini o'zi va boshqalar nazdida xo'rlash hamda qadrsizlantirish orqali huquqbuzarning kuchi va vakolatlarini mustahkamlashga qaratiladi.

Bezorilik - bu o'zini himoya qila olmaydigan shaxsga qarshi bir kishi yoki bir guruh odamlar tomonidan yuqorida tavsiflangan turli xil zo'ravonlik va tahqirlash harakatlarini sodir qilishdir.

Bir xil jismoniy imkoniyatga ega bo'lgan ikki o'quvchi tez-tez janjallashganda yoki bahslashganda, jumladan, munozara va tortishuvlar do'stona va o'ynoqi tarzda amalga oshirilganda bezorilik sodir bo'lmaydi. Zo'ravonlik har doim jabrlanuvchini ta'qib qilish, unda qo'rquv hissini uyg'otish, ruhiy tushkunlikni paydo qilish, uni kamsitish va bo'ysundirish maqsadini ko'zlaydi. Ta'lim sharoitida bezorilik o'zaro tengdoshlar orasida uchraydi va ko'pincha yoshi kattaroq o'quvchilar tomonidan yosh o'quvchilarga nisbatan sodir etiladi. Bu jarayonning ta'lim muassasasi vakillari, hamkasblar orasida ham shuningdek rahbariyat tomonidan unga bo'ysunuvchi xodimlarga nisbatan ham amalga oshirilishi holatlari mujassam.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti zo'ravonlikni uchta keng toifaga ajratadi[8]:

- o'ziga nisbatan zo'ravonlik
- shaxslararo zo'ravonlik
- jamoaviy zo'ravonlik

O'ziga nisbatan O'ziga qaratilgan zo'ravonlik o'z joniga qasd qilish xatti-harakatiga hamda o'zo'ziga azob berishga bo'linadi. Birinchisiga o'z joniga qasd qilish fikrlari, o'z joniga qasd qilishga urinishlar, shuningdek, ba'zi mamlakatlarda para suitsid yoki qasddan o'ziga jarohat yetkazish hamda suitsidning o'zi kiradi. O'z-o'ziga azob berish, aksincha, o'z-o'ziga zarar yetkazish (mazoxistik) kabi harakatlarni o'z

ichiga oladi. Shaxslararo Shaxslararo zo‘ravonlik ikkita kichik toifaga bo‘linadi: Oilaviy zo‘ravonlik va intim sherik zo‘ravonligi — ya’ni oila a’zolari va intim sherik tomonidan qilinadigan zo‘ravonlik, bu holatlar, odatda uyda sodir bo‘ladi. Jamoaviy Boshqa ikkita keng toifadan farqli o‘laroq, jamoaviy zo‘ravonlikning pastki toifalari shaxslar tomonidan sodir etilgan zo‘ravonlik hisoblanadi. Yurtimizda keyingi yillarda gender tenglikni ta’minlash sohasida izchil va samarali sa’y-harakatlar olib borildi. Asosiysi, xotin-qizlar huquqlari kafolatlarini ta’minlashning qonunchilik mezonlari ham zamon talablariga mos holda takomillashtirilmoqda. Bunda ayollarga nisbatan kuch ishlatish, ayniqsa, oiladagi zo‘ravonlikni bartaraf etishga jiddiy ahamiyat qaratilyapti. Zero, xalqaro huquq ham davlatlarga bu borada aniq majburiyatlar yuklaydi.

Mamlakatimizda oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish tizimini takomillashtirish bo‘yicha sakkizta normativ-huquqiy hujjat, ya’ni 2 ta qonun, 1 ta Prezident qarori va 5 ta Hukumat qarori qabul qilindi. 2021 yil 9 dekabrda «Og‘ir ijtimoiy ahvolda qolgan xotin-qizlar huquqlari kafolatlarini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida»gi qonun shulardan biridir.

Ko‘pincha bezorilik ataylab rejalashtirilgan jismoniy va yoki psixologik zo‘ravonlik bo‘lib, vaqt o‘tsa ham, davom etaveradi; uni to‘xtatish uchun uchinchi shaxs - direktor, o‘qituvchilar, boshqa maktab ishchilari, o‘quvchilar, ota-onalar va ba’zan huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari aralashishi kerak.

Bezorilik o‘ziga xos alohida jihatlarga ega.



Birinchidan, bezorilik assimetrikdir - bir tomondan, jismoniy yoki psixologik jihatdan kuchga ega bo‘lgan huquqbuzar tursa, boshqa tomondan, bunday kuchga ega bo‘lmagan va uchinchi shaxslarning ko‘magi va yordamiga muhtoj bo‘lgan jabrlanuvchi turadi.

Ikkinchidan, bezorilik ma’lum bir maqsadni ko‘zlagan holda muayyan bir shaxsga jismoniy va ruhiy azob-uqubatlarni etkazish uchun qasddan amalga oshiriladi.

Uchinchidan, bezorilik jabrlanuvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchi, hurmati, qolaversa, sog‘lig‘i hamda insonlik qadr-qimmatiga putur etkazadi.

To‘rtinchidan, bezorilik - bu nafaqat jabrlanuvchi va uni suiiste‘mol qiluvchi huquqbuzarga, balki zo‘ravonlik guvohlariga, u sodir bo‘lgan butun sinfga (guruhga) ta‘sir ko‘rsatadigan sinfiy jarayon hisoblanadi.

Beshinchidan, bezorilik hech qachon o‘z-o‘zidan to‘xtab qolmaydi: har doim jabrlanuvchi, bezorilik tashabbuskorlari va huquqbuzar(lar)iga qarshi o‘laroq atrofdagilarning himoyasi va yordamiga muhtoj bo‘ladi.

Bezorilik turli yo‘llar bilan o‘zini namoyon qiladi. Ayrim holda, bu ba‘zi bir o‘ziga xos xususiyatlarga bo‘lgan jabrlanuvchining - tashqi ko‘rinishi, so‘zlashish uslubi, kiyinishi, yurishi, yuz ifodalari, imo-ishoralari, shu jumladan, kasallik yoki nogironligi (duduqlanish, oqsoqlanish) sababli huquqbuzar tomonidan muntazam ravishda og‘zaki haqorat qilinishi, unga laqab qo‘yish yoki uni masxara qilish orqali amalga oshirilsa, boshqa bir holatda, bu jabrlanuvchini kaltaklash, zarba berish, unga tegishli narsalarni musodara qilish yoki buzish, uni xo‘rlash shaklida sodir etilishi kuzatiladi. Masalan, har qanday kamsituvchi harakatlarni bajarishga majburlash yoki uchinchi shaxslarga nisbatan zo‘ravonlik qilishga undash kabi holatlarni bunga misol qilish mumkin. Bunday ko‘rinishdagi jismoniy va og‘zaki tajovuz hamda harakatlar bevosita, ya‘ni yaqqol namoyon qilingan bezorilikni tavsiflaydi. Bilvosita bezorilik o‘zini unchalik aniq bo‘lmagan harakatlar - manipulyasion xatti-harakatlar - yolg‘on ma‘lumot tarqatish, g‘iybat va mish-mishlar orqali namoyon qiladi, odamni muloqot doirasidan chiqarib tashlaydi, birgalikdagi faoliyat, o‘yinlar, rad etish, e‘tiborsizlik, boykot - shular jumlasidandir.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bezorilik uyali telefonlar, elektron pochta, internet, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, chatlar yordamida odamni bezovta qilish, u haqida maxfiy ma‘lumotlarni tarqatish, g‘iybat, tuhmat va haqoratli xabarlarni tarqatish asnosida amalga oshirila boshlandi. Jabrlanuvchiga zarar etkazish uchun huquqbuzarlar ochiqdan ochiq qo‘pol, tazyiqdan iborat sms-xabarlarni yuborishlari, unga tegishli bo‘lgan shaxsiy ma‘lumotlar, fotosuratlar yoki videofilmlarni keng jamoat maydoniga joylashtirishlari kabi holatlarning amalga oshirilishi; jabrlanuvchi nomidan boshqalarni bezovta qilish va bezorilik qilish uchun soxta elektron pochta manzillarini, veb-sahifalarni, ijtimoiy tarmoqdagi akkauntlarni yaratish holatlari uchrab turibdi. Kiberhujumning boshqa zo‘ravonlik turlaridan farqi shundaki, u zo‘ravonga nomini sir saqlashga imkon beradi va shu bilan o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlikdan qochadi.



O‘zining tizimli va uzoq muddatli rivojlanish sifatida **bullying** yoki travli (**bezorilik**) bir necha bosqichlarni bosib o‘tadi.

Birinchi bosqichda jismoniy kuch yoki boshqa zo‘ravonlik harakatlarining namoyishi orqali o‘zini tasdiqlashga intilayotgan “etakchilar” (liderlar) atrofida “qo‘llab-quvvatlovchilar” guruhi shakllanadi, ular ham “etakchi”ga ustunlik qilishga yoki himoya qilishga va homiylik qilishga intiladi.

Ikkinchi bosqichda ziddiyat birlashtiriladi. O‘qituvchilarning aralashmasligi, sinfdoshlarning beparvoligi zo‘ravonlik harakatlarini takrorlashga imkon beradi va ularga duch kelgan o‘quvchi asta-sekin qarshilik ko‘rsatish qobiliyati va irodasini yo‘qotadi. Keyinchalik zaifroq bo‘lib, u shu bilan keyingi hujumlar uchun bahona bo‘ladi.

Uchinchi bosqichda doimiy ravishda hujumga uchragan o‘quvchiga jabrlanuvchi maqomi beriladi. Atrofdagilar ham bunga moslashib, yuzaga keladigan har qanday qaltis vaziyatlarda zo‘ravonni emas, balki jabrlanuvchini aybdor deb topa boshlashadi va shunga ko‘nikma hosil qilishadi. Natijada jabrlanuvchi odam o‘zini o‘zi bezorilikda aybdor ekanligiga ishonтира boshlaydi. U endi vaziyatni o‘zi hal qila olmaydi va ruhiy tushkunlikka tushadi. Oqibatda qo‘rqoq va jur‘atsiz bo‘lib qoladi.

To‘rtinchi bosqichda jabrlanuvchida haddan tashqari umidsizlik va yolg‘izlik tuyg‘usi qo‘zg‘alib, huquqbuzar bilan uchrashishdan va qo‘shimcha travmatizmdan qochishga urinib, vaqti-vaqti bilan mashg‘ulotlardan voz kechishni boshlaydi, hatto maktabga borishni to‘xtatadi. Kattalar (ota-onalar, o‘qituvchilar, maktab ma’murlari) bezorilik holatiga aralashganda, jabrlanuvchi boshqa sinfga yoki maktabga ko‘chirilishi mumkin. Ammo uzoq davom etgan zo‘ravonlik natijasida olingan chuqur

psixologik travma jabrlanuvchining yangi ta'lim guruhiga muvaffaqiyatli qo'shilishiga to'sqinlik qilishi va bezorilikni yangi joyda takrorlanishining sabablaridan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kattalar va tengdoshlarning yordamisiz va zo'ravonlik holatidan chiqish yo'lini topmasdan, jabrlanuvchi o'ziga zarar etkazishi, o'z joniga qasd qilish haqida o'ylashi va uni sodir etishi mumkin.

Mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlar, xususan, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, bu borada davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini takomillashtirish maqsadida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda shaxs hayoti va sog'lig'iga qarshi jinoyatlarning 40 foizi, har to'rtta qotillikning bittasi, qasddan badanga shikast yetkazishlarning har beshtadan bittasi, haqorat qilish va tuhmatning sakkiztadan bittasi aynan oila-turmush sohasida sodir etilmoqda.

Zo'ravonlikdan jabrlangan ayolning profilaktika inspektori davlat himoyasini ta'minlay berishiga bo'lgan ishonchiga kelgusi harakatlari bog'liq. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 26-moddasida: "Hech kimning qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas", deb qayd etilgan. O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" Qonunining maqsadi ham xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Xulosa qilib aytganda, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, tazyiq va zo'ravonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish bo'yicha sa'y-harakatlarni doimiy ravishda izchil amalga oshirish sodir etilayotgan zo'ravonlikning kamayishiga olib kelishi aniq.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyev. 2017-yil 4-mart kuni qabul qilingan —Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2833-sonli Prezident qarori. <https://lex.uz/docs/3141186>
2. O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrdagi —Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risidagi qonunning 8-moddasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.- T.,2010.,- №39.
3. Костекова К.А. «Роль социального педагога в профилактике правонарушений в подростковой среде». <https://infourok.ru/rol-socialnogo-pedagoga-v-profilaktike-pravonarusheniypodrostkovoy-srede-3776595.html>
4. Старцева-Тарасова Валерия Ивановна. Социальная работа общеобразовательной школы как средство профилактики правонарушений подростков. Ставропол-2005. Vikipediya veb sayti va boshqa internet saytlari